

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "TIL" LEKSEMASINING KONSEPTUAL TAHLILI

Kurbonova Marguba

**Erkin izlanuvchi, Andijon davlat chet
tillari instituti**

Kmarguba2020@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8281037>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi «til» leksemasiga doir somatik frazeologik birliklarning ishlatilishi haqida baxs yuritiladi. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, leksema, somatizm atamasi, frazeologik butunlik, konseptual tahlil...

Ingliz va o'zbek tillarida til leksemasini konseptual tahlilini boshlashdan oldin, til leksemasining o'zbek tilining izohli lug'atida keltirilgan ta'rifga e'tiborni qaratsak, keyin tilga doir somatik frazeologik birliklarni birma-bir tahlildan o'tkazsak, til - anat.og'iz bo'shlig'ida joylashgan, ta'm-maza bilish, og'izga ovqat olmoq, yalash va shu k.lar uchun xizmat qiladigan muskulli a'zo. Issiqdan itning tili osilgan. Aytsam tilim kuyadi-aytmasam dilim. Maqol.

Ingliz tilida ham **til** leksemasiga Webster izohli lug'atida berilgan ta'rifga e'tiborni qaratsak: ot so'z turkumiga kiruvchi **"tongue"** so'zi o'zining kelib chiqishi bo'yicha grek tilidagi **"tungo"**, lotin tilidagi **"lingua"**, qadimgi yuqori nemis tilidagi **"zunga"**, qadimgi ingliz tilidagi **"akin"**, o'rta asrlar ingliz tilidagi **"tunge"** so'zlari bilan bog'liq hisoblanadi va uning bosh ma'nosi "oral organ of most vertebrate creatures" (ko'pgina umurtqali jonzorlarning og'iz a'zosi) ma'nosini ifodalashi ko'rsatib o'tilgan.

Izohli lug'atda **"tongue"** leksemasini boshqa ma'nolarida ishlatilishiga e'tiborni qaratsak [6]:
a) ko'pgina umurtqali hayvonlarning og'izlari qavatining gipoid suyakka bazal ravishda biriktirilgan jarayoni, asosan uning asosini boshqa qismlarga biriktiruvchi tashqi mushak massasidan, tuzilish qismlari bir-biriga nisbatan harakatlanadigan ichki mushaklardan va hissiy so'nggi organlarga boy epiteliya qoplamasidan iborat va kichik bezlar, va bu ovqatni qabul qilish va yutish uchun maxsus xizmat qiladi, ta'm tuyg'usining asosiy o'rindig'i sifatida, tozalash va parvarish qilish vositasi sifatida, teginish organi sifatida (ilonda bo'lgani kabi), va ba'zi shakllarda (qurbaqa sifatida) o'ljani tortib olish uchun prehensil a'zo sifatida foydalanadi;

b) turli umurtqasiz hayvonlarning o'xshash qismi (boquvchisi yoki ba'zi hasharotlarning lingulasi sifatida);

Til leksemasining ikki somatik komponentli frazeologik birliklarda qo'llanilishiga doir misol keltirib o'tamiz. *To have a tongue in one's head* [8]- If you didn't know the way, you should have asked. You have a tongue in your head, haven't you. **Tongue** (ot)+ **head** (ot) struktural ko'rinishida ifodalangan bo'lib, **muloyim gapirmoq** ma'nosida qo'llanilgan.

Keyingi ikki komponentli somatik frazeologik birlikka misol: *to have (speak with yoki put) one's tongue in one's cheek*-to put one's tongue into one's cheek) [5] - *masxara qilib gapirish*

ma'nosini bildiryapti. Struktural tuzulishi: **Tongue** (ot)+ **cheek** (ot)dan iborat bo'lib, **til** leksemasi bilan **yonoq** leksemasi ishlatilgan.

Quyidagi ikki komponentli somatik frazeologik birlikka e'tiborimizni qaratamiz: a still **tongue** makes a wise **head** [7]- *tilini tiyib farosatni ishlatish*, somatik frazeologik birlikni struktural korinishi **tongue** (ot)+ **head** (ot) bo'lib, til leksemasi bilan bosh leksemasini qatnashuvi bilan yasalgan, o'zbek tilidagi *Tilingni tilsang, olim bo'lasan* naqliga to'g'ri kelishini kuzatdik, bu ham esa ikki til orasida o'hshashlikni bildirib turibdi.

Endi esa, with your **tongue in your cheek**; with tongue in cheek somatik frazeologik birlikka ingliz tilida keltirilgan izohga e'tiborimizni qaratamiz: if you say something with your tongue in your cheek, you are not being serious and mean it as a joke.

I'll thank you to keep a civil tongue in your head (= speak politely) [3] -keltirilgan gapimizda **keep a civil tongue in your head** somatik frazeologik birligini ma'nosi **muloyimlik bilan gapirmoq** ma'nosida qo'llanilib, **til** leksemasi bilan **bosh** leksemasini birikuvidan hosil bo'lgan, uning struktural ko'rinishi esa **tongue**(ot)+ **head**(ot)dir.

Ingliz yozuvchilaridan biri bo'lmish George Herbertning [11] keltirilgan naqlariga e'tiborni qaratsak: A long **tongue** is a sign of a short **hand**. Naql **tongue** (ot)+**hand** (ot) structural ko'rinishida bo'lib, **til** leksemasi bilan **qo'l** leksemasining ishlatilishidan hosil bo'lgan naql hisoblanib, *uzun til qo'li kaltalik belgisidir* deb o'girildi, o'zbek tilidagi *Uzun til — boshga to'qmoq, Bo'yinga — sirtmoq* [11] maqoliga to'g'ri kelib, yuqorida keltirilgan ingliz tilidagi matalni o'zbek tilidagi ma'no jihatdan teng keladigan ekvivalentni maqolni topib, bu kabi somatik komponentli frazeologik birliklar har bir millat tilida ham uchrashishini kuzatdik.

Xitoy xalqiga mansub ingliz tilida berilgan maqollarni ham tahlilga tortdik: The **tongue** can paint what the **eye** can't see. Maqol qo'shma gapda berilgan bo'lib, uning struktural ko'rinishi **tongue** (ot)+ **eye** (ot) da berilgan, **til** leksemasi bilan **ko'z** leksemasi birga ishlatilgan, *til ko'z ko'rmaydigan narsalrni bo'yashga qodir* ma'nosini bildirib kelyapti. O'zbek tilidagi *To'qson og'iz so'zning to'qsonta tuguni bor* [12] maqoliga mos kelishini kuzatdik. Semantik jihatdan mos tushgan.

Ingliz tilida berilgan turk xalqi maqollarida ham ikki komponentli somatik frazeologik birliklar qatnashgan maqollar borligini kuzatdik. Masalan, He who controls his **tongue**, saves his **head**. **Tongue** (ot)+ **head** (ot) structural ko'rinishida bo'lib, **til** leksemasi bilan **bosh** leksemasi qatnashganligini ko'rishimiz mumkin. *Tilini boshqara oladigan shahs, o'zini boshini saqlaydi* degan ma'noni bildirib kelyapti. O'zbek tilidagi *Til yugurigi — boshga, Oyoq yugurigi — oshga* maqoliga to'g'ri kelyapti. Qiziqarli jihatlar shundan namoyon bo'lmoqdaki, ingliz tilidagi maqol ikki komponentli leksemadan, ya'ni **til** leksemasi bilan **bosh** leksemasidan hosil bo'layotgan bo'lsa, o'zbek tilidagi maqol esa uch somatik komponentli leksemadan, **til**, **bosh**, **oyoq** leksemalari ishtirokida berilgan. Demak, ingliz va o'zbek tillarida keltirilgan maqollar struktural jihatdan allomorph, semantik jihatdan izomorf tomonlarini ko'rsatyapti.

Rus maqollaridan A woman's **tongue** is longer than her **hair** ga e'tiborni qararsak, **til** leksemasi bilan **soch** leksemasi bilan birdek ishlatilishidan, ikki komponentli somatik frazeologik birlik hosil bo'lgan. Maqolning struktural tuzulishiga kelsak, bu maqol ham boshqa maqollar singari **tongue** (ot) + **hair** (ot)

Yuqorida ingliz tilida ikki va undan ortiq somatik komponentli frazeologik birliklarni ishlatilishini tahlildan o'tkazgan bo'lsak, endi esa o'zbek tilidagi ikki va undan ortiq somatik

komponentli frazeologik birliklarni tahlilini ko`rib chiqsak: O`zbek tilida "**tilda tishlash, orqada opichlab**" somatik frazeologik birligini struktural ko`rinishi **til** (ot)+ **tishlash**( fe'l) komponentlar birlashuvidan hosil bo`lgan somatik frazeologik birlik hisoblanib, so`zma-so`z tarjima qilinganda, **tilga tishlash, orqasiga ko`tarish** barqaror birikmasida mavjud bo`lib, denotative ma`nosi **ko`z qorachig`idek asrab-avaylash** ma`nosini anglatadi. Masalan: Men bu bolani **tilimda tishlab**man, orqamda opichlab katta qildim (O`zbekcha-ruscha lug`at). Bir millatning madaniy kontseptsiyasi boshqasidan keskin farq qilishi, ayniqsa, fe'l ma`nolarida, ularning lug`atlardagi tarjimasida yaqqol ko`rinadi [4,336]. Keltirilgan gap uch somatik komponentli gap bo`lib, **til** leksemasi, **tish** laksemasi, **orqa** leksemasidan iborat bo`lgan frazeologik birlik hisoblanib, gapning struktural tuzulishi **til** (ot)+ **tishlamoq** (fe'l)+ **orqa** (ot)dan iborat.

References:

1. Eliot G, 'Adam Bede', ch. XXIII
2. London, 'The Mutiny of the 'Elsinore', ch. XLV
3. Oxford Learners` Dictionaries. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com>.
4. Sodiqova M. Qisqacha O`zbekcha – ruscha frazeologik lug`at. – Toshkent : o`zbek ensiklopediyasining asosiy nashri, 1989. – 336 b
5. Stevenson R. L. 'New Arabian Nights', 'The Suicide Club
6. Webster`s third international dictionary of the English language. Könnemann.1993.P. - 2407.
7. [Кунин Александр](#). Англо-русский фразеологический словарь. [Просвещение/Дрофа](#), 2007 г.
8. Поплавская Т, Английский язык. Проблемы коммуникации, 2021, p-124
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Б-харфи.-Б.353
10. <https://www.ziyouz.com>.
11. <https://uzbaza.uz/til-haqida-maqollar>
12. <https://uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/tilimiz-boyligimiz/til-haqida>